

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BIZNES  
ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BIZNES ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Biznes asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli **“Umumta‘lim fanlarini kasbiy ta‘lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi”** qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Biznes asoslari**

1. **“Jamg‘arma” o‘yini simulyatsiyasi**
2. **“Mikro biznes” o‘yini simulyatsiyasi**
3. **“Biznesni rejalashtirish va kredit olish” bo‘yicha suhbatga tayyorgarlik ko‘rish**

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	“Jamg‘arma” o‘yini simulyatsiyasi	<p>Moliyaviy savodxonlik: daromad, xarajat, foyda, kredit va foiz stavkalari tushunchalarini to‘g‘ri qo‘llash.</p> <p>Rejalashtirish va tahlil qilish ko‘nikmasi: byudjet tuzish, jamg‘arma rejasini ishlab chiqish, risklarni oldindan baholash. Mas’uliyat va uzoq muddatli fikrlash: pulni tejash, investitsiya qilish va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashga nisbatan ongli yondashuv, qaror qabul qilish: cheklangan resurslarda eng samarali moliyaviy variantni tanlashni bilishi lozim</p>	14 ta
2	“Mikro biznes” o‘yini simulyatsiyasi	<p>Bu o‘yin orqali virtual kompaniyani boshqaradi. Bu jarayonda baholash quyidagi konstruktlar asosida amalga oshiriladi:</p> <p>Tadbirkorlik tafakkuri: biznes g‘oya yaratish, bozor imkoniyatlarini aniqlash, raqobatchilarni tahlil qilish.</p> <p>Strategik boshqaruv: ishlab chiqarish, marketing, moliya va HR sohalarida qaror qabul qilish.</p> <p>Jamoaviy ishlash va liderlik: rol taqsimoti, murosaga kelish, kommunikatsiya samaradorligi.</p> <p>Innovatsion fikrlash: yangi mahsulot, xizmat yoki marketing strategiyasi ishlab chiqishni biladi.</p> <p>Natijaga yo‘naltirilganlik: raqobat sharoitida samaradorlikni oshirish va foydani ko‘paytirish yo‘llari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.</p>	16 ta
3	“Biznesni rejalashtirish va kredit olish” bo‘yicha suhbatga tayyorgarlik ko‘rish	<p>Bu bosqichda nazariy bilimlarini amaliy reja ko‘rinishida ifoda etadi. Baholash quyidagi konstruktarni o‘z ichiga oladi:</p> <p>Analitik fikrlash: bozor tadqiqoti, SWOT-tahlil (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar, xavflar).</p> <p>Moliyaviy hisob-kitob: xarajatlar smetasi, daromad prognozi, foyda marjasini tahlil qiladi.</p> <p>Marketing strategiyasi: maqsadli auditoriya, reklama kanallari, narx siyosati, loyiha taqdimoti va asoslash: fikrni aniq, lo‘nda va ishonarli tarzda bayon etadi.</p> <p>Ijtimoiy va axloqiy yondashuv: biznesning jamiyatga foydasi, ekologik mas’uliyat haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.</p>	10 ta

## V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Birgit Flamma, Matias Vangler, Sobaxon Raxmanova. Biznes asoslari : o‘quv qo‘llanma / (Birgit Flamma, Mathias Vangler, Sobaxon Raxmanova). – Toshkent: 2024

2.A.B. Xayitov, I.A. Bakiyeva, S.B. G‘oyipnazarov, Biznesga kirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

3.T.Abdullayev,K.Misirov,Sh.Raxmonov,K.Islamov,Buxgalretiya hisobi o‘quv qo‘llanma.-T “Nihol-print”, 2021 y.

4.”Jamg‘arma o‘yini” ishtirokchilar uchun qo‘llanma

5.”Jamg‘arma o‘yini” trenerlar uchun qo‘llanma

6.”Mikro biznes o‘yini” ishtirokchilar uchun qo‘llanma

7.”Mikro biznes o‘yini” trenerlar uchun qo‘llanma

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*